

TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

NASIBA XO'JANOVA

Respublika baxshichilik san'ati markazi katta ilmiy xodimi

DILDORA YO'LDOSHEVA

Respublika baxshichilik san'ati markazi Davlat muassasalari Kadrlar bo'yicha

bosh mutaxassis

ZARNIGORA USMONOVA

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiya fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada yozuvchi va shoir Shuhratning ijodi tahlil qilingan . Uning romanlari , asarlarining yozilish tarixi , prototiplari haqida to'xtalgan . Uning adabiyotimizga qo'shgan hissasi va boy ijodining ahamiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar : Orzu , roman ,urush, hayot , tinchlik, mardlik

XX asrning o'rta avlod vakili bo'lgan Shuhrat adabiyotga o'zining ko'p qirrali ijodi bilan kirib keldi. Dastlab "Orzu va Qasos", "Bizning ko'cha" "Hayot nafasi", "Qardoshlar", "Sening sevging", "Ishqingda yonib" kabi she'riy to'plamlarini yaratdi. Bu to'plamlarga kirgan she'rlarda soddalik va romantik jo'shqinlik , nozik tuyg'u va ko'ngil ehtiroslarini ko'rish mumkin. Shuhrat haqiqiy ma'noda lirik qalb egasi edi. Uning she'rlarida xalq qo'shiqlariga xos ifoda yo'sini ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari u doston va ballada janrlarida ham samarali ijod qildi. Bu asarlarda milliylik va umuminsoniy g'oyalar tarannum etiladi. Uning asarlari tili sodda, ravon, xalq tiliga yaqin, boshqacha aytganda xalqning orzu-umidi, o'y-kechinmalarining badiiy ifodasidir. Uning meditativ lirikasi XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos yangi sahifasini yarata oldi. Shoir she'riyatiga xos haqqoniylilik, samimiylilik va badiiy mukammallik uning nasriy asarlariga ham xos.

Adibning nasrdagi dastlabki yirik asari "Shinelli yillar" romanidir. Shuhratning Ikkinci jahon urushida qatnashishi va urushning daxshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rishi bu romannining yozilishiga sabab bo'ldi. Ammo bu romanning keng kitobxonlar ommasiga yetib borishi oson bo'lindi . Said Ahmad Shuhrat

haqida shunday yozadi : “Hayot odamni umr bo‘yi sinaydi, degan gapga unchalik e’tibor qilmasdim. Yanglishgan ekanman...Urush boshlandi, Shuhrat jangga ketdi, unga shon – shuhrat va’da qilgan qalami stol ustida mung‘aygancha qoldi. U urush yillarining og‘ir sinovidan sabot bilan o‘tdi. Tinch ijodiy yillar boshlandi. “Shinelli yillar” romani ustida jiddiy ishladi. Ammo uning quvonchi uzoqqa bormadi.Hayot uni yana bir sinovdan o‘tkazdi. Shuhrat shaxsga sig‘inish ofatiga uchradi “.¹⁰ Haqaqatan ham Shuhrat XX asrning og‘ir, fojiali ta’qib – tazyiqlari, ma’naviy – ruhiy bedodliklari ichida yashadi. Adabiyotshunos, tarjimon Ibrohim G‘ofurovning aytishicha : “Adib Shuhratning bironta kitobi o’sha davrlarda – XX asr o‘rtalarida – bemalol chiqqan emas. ” Shinelli yillar ”dan tortib “ Jannat qidirgan”largacha (“Oltin zanglamas”ni –ku asti qo‘yaverasiz), barcha – barchasi mafkuraviy aqidalarning yengib o‘tib bo‘lmash to‘g‘onlarining ashaddiy qarshiliklarini sindirib o‘tib dunyo yuzini ko‘rgan, o‘quvchisi qo‘liga borib yetgan”¹¹. “Shinelli yillar “ dastlab rus tilida, so‘ngra o‘zbek tilida nashr etildi. Yozuvchi ushbu romanida 1941-1945 yillardagi urush voqealari, xalqimizning mardligi, yovga qarshi birdamlikda qahramona kurashib, g‘alabaga erishishga hissa qo‘shgani real tasvirlab bergen. Asar bosh qahramoni Elmurod. Bu qahramon timsolida mard, matonatli, bag‘ri keng, xalqparvar o‘zbek ko‘rinib turadi. U eng og‘ir jang paytlarida ham o‘zini yo‘qotmaydi. Mardonavor kurashadi. Mana shu kurash jarayonida Elmurodning ma’naviy qiyofasi, ichki kechinmalari ochilib boradi. Masalan, u bir paytlar qishloqdoshi Muhamramni sevgan edi, afsuski, urush tufayli bu muhabbat yakun topadi va taqdir taqozasi bilan Muhamramning turmush o‘rtog‘i Rashid bilan bitta bo‘linmada xizmat qiladi. Umuman yozuvchi bu ikki obrazni o‘ch olish mumkin bo‘lgan paytlarda bir –biriga ro‘paro‘ qiladi. Ammo Elmurod insoniylik nuqtai – nazaridan yarador bo‘lgan Rashidga beg‘araz yordam beradi. Asar voqealari O‘zbekistonda boshlanib, Volga bo‘ylarida, Kavkaz va

¹⁰ Сайд Аҳмад. Йўқотганларим ва топғанларим . Шарқ .Тошкент. 2000. Б .166-167.

¹¹ Ғафуров И. Танланган асарлар. Шарқ. Тошкент. 2017. Б.720

Ukrainada bo‘lib o‘tadi. Elmurod obrazida muallif biografiyasi qisman ko‘rinadi. Shuhratning bu romanni yaratishdagi katta yutug‘i uning urushda qo‘liga quroq olib jangga kirgani, urush voqealarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganidir. Urushdagi har bir voqea ham adib tomonidan ishonarli chiqqan. Buni yozuvchining o‘zi shunday izohlaydi : “ ...O‘zbek soldat – ofitserlarining Ulug‘ Vatan urushi maydonlaridagi jonbozligini ko‘rsatish niyatida voqeani urush arafasidan boshladim. Asosiy material bo‘lib o‘z biografiyam xizmat qildi. To‘g‘risi, ko‘rgan bilganlarim dalda bo‘ldi. Bunga do‘sralarim hayoti, ijodiy to‘qimalarim qo‘shilib ketdi. Tabiiy, bir kishining biografiyasi bilan badiiy asar yozib bo‘lmaydi, bo‘lganda ham u badiiy asarga aylanmaydi. Adib shuning uchun ijodkorki, u o‘zi tanlagan biografiyasiga o‘z fikr – o‘yi, orzu –umidi, ideyalari, dard –armonlari, o‘kinch va afsuslarini badiiy vositalar orqali qo‘shadi, moslashtiradi, to‘qiydi, boyitadi. Buning hammasi yozuvchining uquviga, mahoratiga, samimiyatiga va e’tiqodiga bog‘liq”.¹² Bundan tashqari, romanda Yo‘ldosh Otaev, Rashid, Muharram, Mamajon Turdiev, Sodiqov kabi vatandoshlarimizning qiyofalari yorqin chizilganligini ko‘ramiz.

Shuhratning keyingi romani “Oltin zanglamas”ni kitobxonlar yaxshi qabul qildi. Yozuvchi bu asarni “yuragimning ochiq yarasi va shukronasi ”deb ataydi. Shuhrat bu asarida birinchi bo‘lib qatag‘on qurbanlari hayotini ichdan ko‘rsatish, bu mudhish hodisalarning tub mohiyatini ochishni maqsad qiladi. “Oltin zanglamas”dagi hayotni men yaxshi bilaman , -deb yozadi muallif , - ular men bilan birga bo‘lgan , menga uchragan kishilarning hayoti . Men bu hayotning atrofidamas, naq ichida bo‘lganman. Bu mavzuda biron narsa yozmasam ko‘nglim o‘rniga tushmas edi”. Bu haqida Sh . Rizaev shunday yozadi : “Oltin zanglamas “o‘zga fazilatlaridan qat’iy nazar muallifning ijodiy jasorati uchun ham o‘zbek romanining mumtoz namunalari qatoriga qo‘shsa arziydi. Chunki qatag‘on yillarini eslab, hanuzgacha shivirlab gaplashadiganlar bor. Boshidan shuncha uqubatlarni o‘tkazib kelib, tanasidan Shimol qahratonlarining zahri ketmay, shular haqida

¹² Шуҳрат . Ўзим ҳақимда икки оғиз сўз /Танланган асарлар .Уч томлик , Биринчи том . – Тошкент. F.Фулом номидаги бадиий адабиёт , 1969. Б.8-9.

oshkora yozish bu hazilakam gap emas”¹³. Albatta kitobni mutolaa qilgan kitobxon asar bosh qahramoni Sodiq timsolida adibning o‘zini ko‘radi. Bu haqida adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov shunday deydi: “Esimda: “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas” larni ilk bora o‘qiganimda, bu ikki o‘ziga xos bag‘ri keng asarning Elmurod va Sodiq ismli bosh qahramonlari baayni Shuhrat akaning o‘zi ekanligini ko‘rib, tuyib, hayratga tushganman”¹⁴. Bu roman keskin to‘qnashuvlar, o‘tkir konfliktlar asosida qurilgan. Asar shaxsga sig‘inish davridagi adolatsizliklar, begunoh insonlarning qamalishi, halol bir o‘zbek ziyolisi hayotidagi mashaqqatlar haqida. Bu roman yozilgan oltmishinchı yillarda ta’qiq va tazyiqlar kuchli edi, Shuhrat ana shu ta’qiqlarni yorib o‘ti, halol bir ziylanini hibs qilgan zolimlarni fosh etadigan katta bir romanni yaratdi. Asar qahramoni Sodiq timsolida yozuvchi inson irodasining naqadar kuchliliginı e’tiqod, vijdon amri har bir kishining jamiyatdagi mavqeい va insoniy qadr qimmatini belgilovchi muhim ma’naviy qadriyat ekanligini ko‘rsatadi.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida katta shov – shuvlarga sabab bo‘lgan asarlar talaygina. Shuhratning o‘z davri uchun anchayin qaltis mavzu –vatangadolar qismati haqidagi “Jannat qidirganlar” romani shunday asarlar sirasiga kiradiki, uni adibding shoh asari sifatida baholash mumkin. Roman XX asrning 60 – yillaridagi tarixiy jarayonni, shu davr voqealari, kishilari ruhiyatini aks ettiruvchi asarligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Asar zamirida vatanparvarlik, yurtga sodiqlik kabi ezgu tuyg‘ular yotadi. Vatanga xiyonat eng og‘ir jinoyat ekanligi roman voqealari rivojida ochib beriladi. Romanda yozuvchi Saidakbar hoji, uning oilasi tevaragidagi shaxslar misolida vatangadolar qismatini yoritib beradi. Saidakbar hoji – murakkab shaxs. Bu odam shaxsiyatini butun murakkabligi, qarama – qarshiliklari, kuchli va zaif tomonlari bilan ko‘rsatishga intiladi. Asarda biz turli xil obrazlarni ko‘ramiz. Qoplombek – o‘ta tuban shaxs, A’zam ham xoin, vatanfurush. Biroq uning qismati Qoplombeknikidan mutlaqo farq qiladi. Yozuvchi

¹³ Ризаев III . Умр карвони / Шуҳрат . Хотиралар .-Т.:Шарқ , 1998 . –Б.278.

¹⁴ И. Ғафуров. Ўша манба. Б. 720

Qurbaniali obrazi tasviri vositasida Vatan tushunchasini, yurtga muhabbat tuyg‘usini to‘g‘ri talqin qilgan. Yozuvchining o‘zi bu roman haqida shunday deydi: “Jannat qidirganlar” – boshqacha roman. Unda deyarli o‘z tarjimai holim yo‘q. Agar uchrasa ham Ummatali obraziga sal –pal yuqqan. Lekin romanda mening idealim bo‘lgan obrazlar bor”. Bu romanda chet ellardagi milliy uyg‘onish, mustamlakachilikka qarshi ozodlikka intilish mavzusi ham ancha keng va haqqoniyligini aks etgan. Ya’ni erksevar xalqlarning kuch – qudratini haqqoniyligini tasvirlashga katta o‘rin berilgan.

Xulosa qilib aytganda yozuvchi tomonidan yaratilgan asarlar u yashagan davr va muallif biografiyasi bilan bevosita bog‘liq. Har bir yaratilgan yaxshi asar ijodkorning adabiyotdagi o‘rnini belgilaydi. Adib o‘zi yashagan davr voqeliklarini, insoniy dard – kechinmalarini boshidan kechirgan, guvohi bo‘lgan hayat manzaralari orqali badiiy aks ettirdi. Yozuvchi O‘tkir Hoshimov u haqida shunday yozadi : “Shoir, adib, dramaturg Shuhrat zamon azoblaridan yiqilib, to‘sakka yopishib qolgan chog‘da ham titroq qo‘llari bilan haqiqat oldida titramaydigan asarlar yozdi. Hayotda ham, ijodda ham o‘z nomini qoldirdi”¹⁵. Haqiqatan ham adib hayotda ham ijodda ham o‘zligiga sodiq qoldi. Yozuvchi qoldirdan boy adabiy meros XX asr o‘zbek adabiyoti tarixidan munosib o‘rin egalladi.

¹⁵ Danabaeva G. Adib ijodiga chizgilar. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2022. 11-sont. B. 69.